ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME - 4

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME - 4

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

O‘ZBEKISTON XALQARO SAVDOSIDA NAZARIY ASOSLAR TAHLIL VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich
Andijon davlat texnika instituti
E-mail: shodmonovsayidbek@gmail.com;
Tel.:+998993217989.
Sharifjonov Sarvarbek Mirzaakbar o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti Transport logistika yo‘nalish 4-kurs talabasi
E-mail: Sarvarbeksharifjonov@gmail.com
Tel.:+99888-838-04-48

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining xalqaro savdodagi o‘rni, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tendensiyalari har tomonlama tahlil qilinadi. Xalqaro savdoning nazariy asoslari, klassik va zamonaviy yondashuvlar, mintaqaviy hamda milliy olimlarning ilmiy qarashlari, shuningdek, so‘nggi yillarda olib borilgan empirik tadqiqotlar chuqur o‘rganiladi. O‘zbekiston eksport va importining so‘nggi 5 yildagi statistik ko‘rsatkichlari batafsil tahlil qilinadi. Maqolada xalqaro savdoni rivojlantirishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari hamda istiqbollari haqida ilmiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro savdo, O‘zbekiston, eksport, import, diversifikatsiya, taraqqiyot, bosqich,, tadqiqot,masofa,yo‘l,texnologiya,bosqich.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of Uzbekistan’s role in international trade, its developmental stages, and current trends. Theoretical foundations of international trade, classical and modern approaches, regional and national scholars’ scientific views, as well as recent empirical studies are thoroughly examined. The article analyzes detailed statistical indicators of Uzbekistan’s export and import over the past 5 years. The study also addresses challenges in the development of international trade and offers scientific conclusions regarding solutions and future prospects.

Keywords: international trade, Uzbekistan, export, import, diversification, development, stage, research, distance, path, technology, stage.

Аннотация. В статье всесторонне анализируется место Республики Узбекистан в международной торговле, этапы ее развития и современные тенденции. Подробно рассматриваются теоретические основы международной торговли, классические и современные подходы, научные взгляды региональных и национальных ученых, а также эмпирические исследования последних лет. Подробно анализируются статистические показатели экспорта и импорта Узбекистана за последние 5 лет. В статье

представлены научные выводы о проблемах, возникающих в развитии международной торговли, а также путях и перспективах их решения.

Ключевые слова: международная торговля, Узбекистан, экспорт, импорт, диверсификация, развитие, этап, исследование, расстояние, дорога, технология, этап.

KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida xalqaro savdoni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Jahon iqtisodiy tizimidagi o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlari va mintaqaviy integratsiya O‘zbekiston uchun yangi imkoniyatlar va chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Xalqaro savdo mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholining daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi [1]. So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan ochiq iqtisod siyosati, eksportni rag‘batlantirish va importni diversifikatsiya qilish borasidagi islohotlar mamlakat xalqaro savdo salohiyatining sezilarli darajada oshishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, xalqaro savdo sohasida yuzaga kelayotgan muammolar, ichki va tashqi omillarni chuqur o‘rganish, zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada xalqaro savdoning nazariy asoslari, tarixiy rivojlanish bosqichlari va O‘zbekistonda bu sohada olib borilayotgan islohotlar, so‘nggi besh yillikdagi eksport-import jarayonlari, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar ilmiy asosda tahlil qilinadi [2].

Xalqaro savdoning nazariy asoslari va uni tahlil qilishda zamonaviy iqtisodiy fanlar tarixida bir qator fundamental yondashuvlar va konsepsiyalar shakllangan. Bu borada dastlab merkantilizm nazariyasini tilga olish maqsadga muvofiq. Merkantilizm XVI-XVIII asrlarda Yevropada shakllangan bo‘lib, davlatning boyligini asosan tashqi savdodan tushadigan sof daromadlar, ya’ni eksport va import o‘rtasidagi farq bilan o‘lchashga asoslangan edi [3,4]. Bu davrda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun eksportni rag‘batlantirish, importni cheklash asosiy vosita sifatida qaralgan. Keyingi davrlarda klassik iqtisodiy maktab vakillari, jumladan Adam Smit va David Rikardo, xalqaro savdoda mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalarini ilgari surdilar. Adam Smitning mutlaq ustunlik nazariyasiga ko‘ra, har bir davlat o‘zida eng samarali ishlab chiqariladigan mahsulotni eksport qilishi va boshqalar tomonidan samarali ishlab chiqariladigan mahsulotni import qilishi kerak. David Rikardo esa nisbiy ustunlik konsepsiyasini ishlab chiqdi va har bir mamlakat o‘zida nisbatan samaraliroq ishlab chiqariladigan mahsulotni eksport qilish orqali umumiy farovonlikka erishilishi mumkinligini asoslab berdi [5-8].

ISSN 3030-3907

ADABIYOT TAHLILI. Haydovchilar o‘rtasidagi muloqot va yo‘l belgilaridan foydalanish masalalari transport psixologiyasi va ergonomika sohalarida keng o‘rganilgan. Shinar [9] o‘zining klassik ishida samarali vizual muloqot (aylanish signallari, faralar, ogohlantiruvchi signallar) avariyalarning oldini olishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Yo‘l belgilarining standartlashtirilgan tizimi (MUTCD – Manual on Uniform Traffic Control Devices) xalqaro miqyosda qabul qilingan bo‘lib, har bir haydovchi ushbu belgilarning ma’nosini bilishi va ularga so‘zsiz amal qilishi kerak [10]. Dewar va Olson [11] tadqiqotiga ko‘ra, yo‘l belgilarini noto‘g‘ri tushunish yoki ularga e’tibor bermaslik barcha avariyalarning 8-12 foiziga sabab bo‘ladi.

Xavfsiz masofani saqlash qoidasi fizika va harakat mexanikasi qonunlariga asoslangan. Knipling va boshqalar [12] tomonidan ishlab chiqilgan modelga ko‘ra, oldingi transport vositasiga yetarlicha masofani saqlamaslik to‘satdan tormozlanish holatlarida reaktiv vaqt va to‘xtash masofasini hisobga olmagan holda avariyaga olib keladi. O‘rtacha haydovchining reaksiya vaqti 0,7-1,5 sekundni tashkil etadi, bu vaqt ichida 100 km/soat tezlikda harakatlanayotgan avtomobil 20-40 metr masofani bosib o‘tadi [2], [12]. “Ikki sekund qoidasi” (yoki yomon ob-havo sharoitida “to‘rt sekund qoidasi”) xalqaro amaliyotda xavfsiz masofani aniqlashning standart usuli hisoblanadi [1].

NATIJA. Xalqaro savdo nazariyalarining rivojlanishida klassik yondashuvdan tashqari, neoklassik va zamonaviy yondashuvlar ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, Heckscher-Ohlin modeli resurslarning bir xil bo‘lmagan taqsimlanishi va ishlab chiqarish omillari (mehnat, kapital, yer) kombinatsiyasi asosida davlatlar o‘rtasida savdo yuzaga kelishini izohlaydi. Bu modelga ko‘ra, har bir mamlakat o‘zida ko‘proq va arzonroq bo‘lgan resursga asoslangan mahsulotlarni eksport qiladi. Keyinchalik Leontief paradoksi bu modelga tanqidiy yondashuvlarni kuchaytirdi. Leontief AQSH misolida kapitalga boy mamlakatda asosan mehnat talab qiluvchi mahsulotlar eksport qilinishini aniqladi va bu Heckscher-Ohlin modeliga zid natija sifatida tarixda qoldi. Zamonaviy zaminda esa yangi savdo nazariyalari (New Trade Theory), jumladan, Paul Krugman va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan model, miqyos iqtisodiyoti, mahsulotlarning differensiallashuvi va ichki soha raqobatining xalqaro savdoga ta’sirini asoslab berdi [9].

Xalqaro savdoning tarixiy rivojlanishiga nazar tashlasak, Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston hududi qadimdan transkontinental savdo yo‘llari, xususan, Buyuk ipak yo‘li orqali Sharq va G‘arb o‘rtasidagi muhim iqtisodiy, madaniy va savdo aloqalarining markazi bo‘lgan. Tarixiy manbalarda Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi shaharlarda xalqaro savdo rivojlanib, xorijiy savdogarlar, hunarmandlar va sarmoyadorlar faoliyat olib borgan. Mustaqillikdan so‘ng,

ISSN 3030-3907

O‘zbekistonning xalqaro savdosi yangi bosqichga ko‘tarilib, davlat tomonidan ochiq iqtisod va tashqi savdo siyosati bosqichma-bosqich joriy qilindi. 1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab, O‘zbekistonda eksport va import tarkibi, savdo hamkorlari geografiyasi, bojxona va savdo siyosati tubdan o‘zgara boshladi. Xususan, dastlabki bosqichlarda O‘zbekiston eksportida paxta tolasi, gaz, rangli metallar asosiy o‘rinni egallagan bo‘lsa, so‘nggi yillarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar, transport vositalari, oziq-ovqat va xizmatlar ulushi ortib bormoqda [3].


O‘zbekistonda xalqaro savdo sohasidagi islohotlar, asosan, 2016 yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yangi bosqichga ko‘tarildi. Jumladan, bojxona tartib-taomillari soddalashtirildi, savdo infratuzilmasi rivojlantirildi, eksportni rag‘batlantirish maqsadida bir qator huquqiy va institutsional mexanizmlar joriy qilindi. Bojxona rasmiylashtiruvi onlayn tizimlarga o‘tkazildi, eksportchi korxonalarga kredit, subsidiyalar va boshqa moliyaviy imtiyozlar berildi. Mamlakatning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lish jarayoni jadallashtirildi va xalqaro savdo standartlariga moslashtirish ishlari olib borildi. Savdo hamkorlari geografiyasi ham kengayib, an’anaviy MDH davlatlaridan tashqari, Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya, Yevropa Ittifoqi, Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston, BAA va boshqa davlatlar bilan hamkorlik kuchaydi. Eksport tarkibida mineral mahsulotlar, rangli metallar, oziq-ovqat va to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ulushi ortib bormoqda. Importda esa mashinasozlik, transport vositalari, kimyo va farmatsevtika, oziq-ovqat va iste’mol mollari asosiy o‘rinni egallamoqda.

Empirik tadqiqotlar va zamonaviy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda xalqaro savdo dinamikasi so‘nggi besh yillikda sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ma’lum qilinishicha, O‘zbekiston 2021 yilda 182 davlat bilan jami 42,1 milliard dollarlik savdo qilgan. Bu ko‘satkich 2025-yilga kelib 210 ta davlat bilan 81.2 milliard savdo aloqalarni olib borgan.

Eksport tarkibida sanoat mahsulotlari, energiya resurslari, oziq-ovqat va to‘qimachilik mahsulotlari ulushi ortib, paxta tolasi va gaz eksportining nisbiy ulushi kamaymoqda. Import tarkibida esa mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo va farmatsevtika, oziq-ovqat mahsulotlari asosiy o‘rinni egallaydi. Quyidagi rasmda O‘zbekistonning 2021-2025 yillardagi eksport va import hajmining dinamikasi ko‘rsatilgan:

Rasm: O‘zbekiston eksport va importining 2021-2025 yillardagi dinamikasi (mlrd. AQSH dollari)

ISSN 3030-3907



1-Dioramma: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Yuqoridagi dinamik ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston eksporti va importi hajmi yildan-yilga ortib bormoqda, biroq import hajmining eksportdan yuqoriligi savdo balansida salbiy saldoga olib kelmoqda. Bu holat iqtisodiy taraqqiyot uchun muayyan xavf va muammolarni yuzaga keltiradi. Shu bois, eksportni diversifikatsiya qilish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro savdo logistikasini takomillashtirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Xalqaro savdo sohasida olib borilgan empirik tadqiqotlar ham O‘zbekistonda bu sohaning o‘ziga xos jihatlarini ochib beradi. Masalan, X. Yusupov va T. Qodirov tomonidan olib borilgan tahlillarda O‘zbekistonning eksport salohiyati, eksport geografiyasining kengayishi, yangi bozorlarni o‘zlashtirish va eksportchi korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalalari ilmiy asosda yoritiladi. Empirik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, eksport hajmining ortishi, mahsulotlar tarkibining diversifikatsiyasi, yangi xorijiy bozorlarni o‘zlashtirish, ishlab chiqarish texnologiyalarining zamonaviylashuvi va logistika tizimining rivojlanishi O‘zbekiston xalqaro savdosining asosiy drayverlari hisoblanadi[5].

Yuqorida keltirilgan nazariy, empirik va tanqidiy tahlillar asosida O‘zbekiston xalqaro savdosining zamonaviy rivojlanish bosqichlari, muammolari va istiqbollari ilmiy jihatdan chuqur o‘rganilgan. Bu jarayonda xalqaro savdoning nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlari, tarixiy taraqqiyot bosqichlari, mintaqaviy va milliy olimlarning ilmiy qarashlari, empirik tadqiqotlar natijalari va zamonaviy tahlillar, tanqidiy nuqtai nazarlar va takliflar uzviy bog‘liq holda tahlil qilindi.

ISSN 3030-3907

XULOSA.

O‘zbekiston xalqaro savdosining zamonaviy rivojlanish bosqichlari, so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar va natijalar, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar chuqur tahlil qilindi. Xalqaro savdoning nazariy asoslari, tarixiy taraqqiyot bosqichlari va zamonaviy yondashuvlar, mintaqaviy va milliy olimlarning ilmiy qarashlari, empirik tadqiqotlar natijalari va tanqidiy nuqtai nazarlar asosida O‘zbekiston xalqaro savdosi rivojlanishining asosiy omillari va muammolari aniqlab berildi. So‘nggi besh yillikda eksport va import hajmining sezilarli o‘sishi, eksport tarkibining diversifikatsiyasi, yangi xorijiy bozorlarni o‘zlashtirish, logistika va transport infratuzilmasining rivojlanishi, elektron savdo va raqamli iqtisodiyot imkoniyatlarining kengayishi O‘zbekiston xalqaro savdosining asosiy drayverlari bo‘lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Smith, A. (1776). An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London: W. Strahan and T. Cadell.
2. Krugman, P., Obstfeld, M., & Melitz, M. (2018). International Economics: Theory and Policy. 11th Edition. Pearson.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2023). O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo statistikalari. https://stat.uz
4. Xudoyberganov, O. (2020). O‘zbekiston tashqi savdo siyosati va uni rivojlantirish yo‘llari. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar.
5. Yusupov, X., & Qodirov, T. (2022). O‘zbekiston eksport salohiyati va uni oshirish yo‘llari. Iqtisodiyot va tadbirkorlik jurnali, 2(4), 45-58.
6. Nurmuxamedov, M. (2021). Xalqaro savdo va logistika: zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
7. L. Evans, Traffic Safety and the Driver. New York, NY, USA: Van Nostrand Reinhold, 1991.
8. J. R. Treat, "A study of precrash factors involved in traffic accidents," HSRI Research Review, vol. 10, no. 6, pp. 1–35, 1980.
9. P. L. Olson, D. E. Cleveland, P. S. Fancher, L. P. Kostyniuk, and L. Evans, Parameters Affecting Stopping Sight Distance. Washington, D.C., USA: Transportation Research Board, 1984.
10. L. Evans, "Traffic crash involvement and the relation to vehicle defects," Accident Analysis & Prevention, vol. 26, no. 4, pp. 511–519, Aug. 1994.
11. A. Smiley, "The role of vehicle factors in road safety," in Proc. Int. Conf. Traffic Saf., Toronto, ON, Canada, Jun. 2005, pp. 45–52.
12. R. K. Noy, "Task analysis and driver behavior," in Handbook of Human Factors and Ergonomics, 2nd ed., G. Salvendy, Ed. New York, NY, USA: Wiley, 1997, ch. 30, pp. 852–887.

ISSN 3030-3907

13. L. Aarts and I. van Schagen, "Driving speed and the risk of road crashes: A review," Accident Analysis & Prevention, vol. 38, no. 2, pp. 215–224, Mar. 2006.
14. R. Elvik, P. Christensen, and A. Amundsen, "Speed and road accidents: An evaluation of the Power Model," Transportation Research Part F: Traffic Psychology and Behaviour, vol. 7, no. 3, pp. 139–153, May 2004.

ISSN 3030-3907